

Malohat Begmatova Xushvaqto'vna.

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Biologiya, ekologiya va dorivor o'simliklar kafedrası v.b.dotsent (PhD)

Qodirova Shahribonu.

Samarqand Davlat Veterinariya Meditsinasi Chorvachilik va Biotexnologiyar Universiteti Toshkent filiali Texnologiyalar fakulteti Agrobiologiya va dorivor o'simliklarni yetishtirish kafedrası Katta o'qituvchisi

Asqarjonov Komronbek Asqarjon o'g'li

Samarqand Davlat Veterinariya Meditsinasi Chorvachilik va Biotexnologiyar Universiteti Toshkent filiali Texnologiyalar fakulteti talabasi

Email: kasqarjonov@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada Za'faron o'simligining amaliy ahamiyati o'rganish, uning sistematik o'rni, yetishtirish texnologiyasi inson organizimidagi ahamiyati va dorivor xususiyati qanday kasalliklarga da'vo bo'lishi haqida ma'lumotlar berib o'tilgan.*

ANNOTATION: *In this article, the study of the practical importance of the saffron plant, its systematic place, the importance of the cultivation technology in the human body, and the medicinal properties of the plant are given.*

АННОТАЦИЯ: *В данной статье дано исследование практического значения растения шафран, его систематического места, значения технологии выращивания в организме человека, лечебных свойств растения.*

Kalit so'zlar: *Ziravorlar sulтони, qizil oltin, tibbiyot, kosmetologiya, krokus, zafaron yog'i, qimmatbaho, dorivor, texnologiya, changchi, foyda, daromad, sapraguldoshalar.*

Ключевые слова: Султан пряностей, красное золото, медицина, косметология, крокусы, шафрановое масло дорогое, лекарственное, технология, опылитель, прибыль, доход, цветы.

Key words: Sultan of spices, red gold, medicine, cosmetology, crocus, saffron oil is expensive, medicinal, technology, pollinator, profit, income, flowers

Kirish: Za’faron qadimdan keng qo’llanilgan qimmatbaho ziravordir. Dunyoda aholi sonining ortishi tabiiy mahsulotlarga bo’lgan talabni oshishiga sabab bo’ladi. Shuningdek insonlar tabiiy farmatsevtik vositalari dori darmonlardan foydalanishni hohlaydi. So’nggi yillarda respublikamizda dorivor o’simliklarni muhofaza qilish ularni yetishtirish va qayta ishlash borasida keng ko’lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mahalliy flora ga mansub 4500 mingdan ortiq o’simliklarning 1200 turi dorivor hisoblanib, ulardan 112 turi ilmiy tibbiyotda foydalanish uchun ro’yxatga olingan, shundan shundan 70 turi farmatsevtika sanoatida qo’llanilmoqda.

So’ngi yillarda hukumatimiz tomonidan mahalliy Dorivor o’simliklarni yetishtirish borasida bir qancha qaror farmonlar chiqarilmoqda. Xususan Muhtaram prezidentimiz **Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 21.05.2022-yil O’zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori.**

“Dorivor o’soimliklar xom-ashyo bazasidan samarali foydalanish, kasalliklarni oldini olish va davolashda dorivor o’simliklarni keng qo’llash, dorivor o’simliklarning madaniy plantatsiyalarini barpo etayotgan tadbirkorlik subyektlarni qo’llab quvvatlash orqali chuqur qayta ishlashni tashkil etish hamda qo’shimcha qiymat zanjirini yaratish maqsadida tumanlar qizilmiya, zafaron, kovrak, lavanda, moychechak, namatak, dalachoy, mavrak, tog’rayhon, bo’yumadaron, kiyik o’ti, kovul, qalampir, yalpiz, va boshqa dorivor o’soimliklar yetishtirish bo’yicha hududlar kesimida ixtisoslashtiriladi. Bunda, 2022-yildan 2026-yilgacha 36000 gektar maydonda yangi dorivor o’simliklar yetishtirshiriladi.”

ZA'FARON (*Crocus sativus* – lotin) - ko'p yillik o'tsimon tugunak piyozli o'ssimlik. Yovvoyi holda uchramaydi. **Hindiston, Xitoy, Janubiy Yevropa, Ozarbayjonda** katta maydonlarda ekiladi. Piyozining diametri 1-2 santimetr. Bargi 5-15 ta, och sariq rangda, eni 2 mm tuksiz. Guli 1-4ta, gultoji oqish, pastki qismi (tashqi tomondan) binafsha rang, uzunligi 2-4 sm. Changchilari gulqo'rglondan qisqa. Ko'sagi cho'ziq, eni 6-7mm. Fevral- iyulda gullaydi, aprel – avgustda meva beradi. Tarkibida efir moyi bo'lgani uchun hidi juda o'tkir va yoqimli. 90 – 100 ming dona zafaron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi.

Za'faron tarixiy manbalarda: Bu ziravorning nomi deyarli hamma tillarda arabcha “sariq” ma'nosini beradigan “Za'faron” so'zidan olingan bo'lib, qadimda mazkur noyob o'simlikdan bo'yoqlash moddasi sifatida foydalanilganidan dalolat beradi. Hozirgi davrda za'faron o'zining azaliy ahamiyatini yo'qotib, asosan pazandalikda ishlatiladi va oltin bilan teng baholanadigan yagona ziravordir. Za'faron o'rta asrlardan beri bahosi va qadri tushmay kelayotgan yagona ziravordir. O'rta asrlarda bir qadoq (450 g) za'faronni zotli arab chopqir otiga ayirboshlash mumkin bo'lgan. Zafaron to'g'risida Ibn Sinoning fikri quyidagicha: Burishtiruvchi va erituvchidir. Bunda burishtirish va yelimlar xususiyati bo'lganidan yetiltiruvchi hamdir. Issig'ligi mo'tadil bo'lib, tiqilmalarni ochadi: Sasishni tuzatib, ichki a'zolarini kuchaytiradi. Za'faron ichish rangni chiroyli, ko'zni ravshan, yurakni quvvatli qiladi. Balg'am ko'chishini osonlashtiradi va nafas a'zolarini kuchli qiladi.

Yetishtirish texnologiyasi: Za'faron yetishtirish uchun o'simlikning biologik xususiyatlari bilan tanishish, shuningdek, gulning tuzilishi va ko'rinishini o'rganish muhimdir. Za'faron ba'zan krokus deb ham ataladi. Bu o'simlik ko'p yillik o'simliklar qatoriga kiradi. Oilasi – sapsarguldoshlar. Ushbu gulning butonlari kichik, taxminan 15-30 sm bo'ladi. O'simlik diametri taxminan 2-3 sm bo'lgan kichik piyozboshlar orqali ko'paytiriladi. O'simlikning poyasi yo'q. Piyozboshning tepa qismida birdaniga g'uncha tugadi va barglar paydo bo'ladi. Bitta piyozboshda uchtagacha g'uncha paydo bo'lishi mumkin. Gullar binafsha, siren rang, sariq yoki sabzirang bo'lishi mumkin. Za'faron guli chiroyli

bo'lsa-da, juda tez to'kiladi. Keyin esa uning mevalari – ko'sakdagi za'faron urug'lari shakllanadi.

Eng keng tarqalgan turlari bahorda gullaydi, ammo kuzda kurtak chiqaradigan navlari ham bor. O'simlikning navlari anchagina. Shulardan biz "krokus" navini ko'rib chiqamiz.

Krokus – odatda 20 sm.dan oshmaydigan past bo'yli o'simlik. U klassik yumaloq va biroz yassi shaklga ega bo'lgan piyozboshlar orqali ko'payadi. Diametri bo'yicha, krokus piyozboshlari hech qachon 3 sm.dan oshmaydi. Piyozboshning qoplamasi qatlam-qatlam qobiqli tuzilishga ega. Pastki qismida esa solinchaksifat ildizlar joylashgan. Krokusda odatda novdalar shakllanmaydi. Gullash paytida yoki undan keyin tutam qilib birlashtirilgan ensiz plastinkalar chiqarishi mumkin. Krokuslar odatda sayoz chuqurlikka ekiladi. Tuproq neytral bo'lishi kerak. Uning qanday foydali xususiyatlarga ega ekani mutlaqo ahamiyatli emas, chunki kelajakda o'sish va gullash uchun barcha kerakli va zarur xususiyatlar bevosita piyozboshning o'zida joylashgan. Krokuslar ko'p suvni xushlamaydi. Shuning uchun tuproqning yuqori qismi quriganida ularni sug'orish tavsiya etiladi. Agar o'simlik ekish paytida tuproq dastlab yaxshi o'g'itlangan bo'lsa, gullash paytida unga o'g'it berish kerak emas. Krokus uchun eng munosib o'g'itlar fosfor va kaliydir.

Za'faronni quritishda quyidagilarga amal qilish kerak.

Popuklarni quritish tartibi ham muhim. Jarayon to'g'ridan-to'g'ri quyosh nurlaridan himoyalangan, iliq, havo aylanadigan joyda amalga oshirilishi kerak. Za'faron ipchalarini uzoq vaqt davomida yorug' joyga qo'ymagan holda, shisha idishda saqlash tavsiya etiladi. Za'faron yetishtirishning qoidalarga muvofiq amalga oshirilgan har bir bosqichi xushbo'y ziravor ko'rinishidagi kutilgan natijaga erishishga yordam beradi.



Dorivor xususiyati va Tibbiyotda ishlatilishi : Za'faronning kimyoviy tarkibi 10-12 % suv, 5-7 % mineral moddalar, 5-8 % moy va mum , 12-13 % oqsil va eng oz miqdorda yog' ekstraktidan iborat o'ziga xos va xushbo'y yoqimli moddalardan tarkib topgan. Za'faron ovqat hazm qilishni yaxshilab, ishtahani ochadi, organizmning hayotiy faolligini yaxshilaydi, kishilar undan oshqozon, yurak, jigar nafas olish a'zolari va asab tizimini mustahkamlashda, buyraklarni tozalashda, og'riqni qoldirishda, tinchlantiruvchi, peshob, o't va ter haydovchi vosita sifatida foydalanishadi. Zamonaviy tibbiyotda u ko'zga tomiziladigan dori tayyorlashda va umumiy quvvatlantiruvchi turli dori-darmonlar tayyorlashda ishlatiladi. Za'faronning antikanserogen va antimutagen xususiyatlarga egaligi isbotlangan. Uni qaynoq sut bilan ichilsa, bosh miya faoliyatini mustahkamlab, xotirani kuchaytiradi. Agar asal bilan iste'mol qilinsa, buyrakdagi toshlarni maydalanishiga yordam beradi. Za'faron guli tumshuqlari eritmasi inson organizmiga zarur bo'lgan karotin, tiamin, riboflamin, flavonoidlar, kalsiy, fosfor kabi moddalarga va turli vitaminlarga boy. Za'faron dorishunoslik sanoatida keng ishlatiladi, u sharq tabobatining 300 dan ortiq dori-darmonlari tarkibiga kiradi. Uning damlamasi bilan qadimda kataraktani davolashgan, 3 ming yillik ishlatish tarixida uning to'qson xil turli kasalliklarni davolashda qo'llanishi aniqlangan. Hozirgi vaqtda ham u ko'zga tomiziladigan dorilar tarkibiga qo'shiladi.

Xulosa: Za'faron o'simligi har tomonlama foyda beradigan o'simlik. Inson salomatligidagi ahamiyati. Za'faron asrlar davomida qiymati o'zgarmagan dunyodagi yagona ziravor hisoblanadi. O'rta asrlarda bo'lgani kabi, hozir ham ushbu xomashyo narxi juda yuqori baholanadi. Za'faron Ginnesning rekordlar kitobiga dunyodagi eng qimmat ziravor sifatida kiritilgan. Eng muhimi Za'faron yaxshi foyda keltiradigan biznes turidir. O'zbekiston –Italiya qo'shma korxonasidagi laboratoriyada terib olingan o'simlik gullarining tolalari qadoqlanadi . 90-100 ming dona za'faron gulidan 1 kg qurigan gul tumshuqchalari olinadi. Plantatsiyaning o'zida 100 dan ortiq ishchilar yerni o't-maysalardan xoli qilish bilan band. Butun dunyoda kimyoviy dorilardan qochish tendensiyasi rivojlanib borishi natijasida za'faronga bo'lgan talab ortib boryapti.



Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Dhar, Manoj K; Sharma, Munish; Bhat, Archana; Chrungoo, Nikhil K; Kaul, Sanjana (28 March 2017). «Functional genomics of apocarotenoids in saffron: insights from chemistry, molecular biology and therapeutic applications (Review)». Briefings in Functional Genomics.
2. Musayeva, S., & Raxmanova, A. (2022). ANALYSIS OF MARKETING ACTIVITIES IN JSC» KHOVRENKO» OF SAMARKAND REGION. Science and innovation, 1(A5), 130- 134.

3. Amanpour, Asghar; Sonmezdag, A. Salih; Kelebek, Hasim; Selli, Serkan (2015). «GC-MS- olfactometric characterization of the most aroma-active components in a representative aromatic extract from Iranian saffron (*Crocus sativus* L.)». Food Chemistry Abdullaev 2002, P*
4. Musayeva, S. (2022). WAYS TO ORGANIZE AND DEVELOP MARKETING RESEARCH IN THE LABOR MARKET. Science and innovation, 1(A5), 99-105, s. Sobirov J. X. O., Komiljanova E. U. Q., Sharifboyeva H. I. Q. XORAZM VILOYATIDA AGRAR SOHANING EKSPORT ALOHIYATINI ENGAYTIRISHDA ARIM NOAN'ANAVIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH ISTIQBOLLARI VA RIVOJI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022.- T. 2.
5. Xalq- tabobati.uz
6. Lex.uz
7. Avetsina.uz
8. My.Agrouz